

YAPON TILIDA INKOR BILAN BOG‘LIQ MULOQOT JARAYONINING O‘ZIGA XOSLIGI

D.D.Boymurodova,

Samarqand davlat chet tillar instituti
Yapon filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muloqot jarayoni va uning til tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, yapon tilida inkor shakllarining qo‘llanilishi, ularning lingvistik va pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, yapon va boshqa tillar o‘rtasidagi farqlar misollar asosida ko‘rib chiqilib, inkor konstruksiyalarining muloqotdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: muloqot, inkor shakllari, yapon tili, lingvopragmatika, nutq jarayoni, kommunikativ omil, verbal va nonverbal muloqot, qo‘sh inkor, tilshunoslik, madaniyatlararo aloqa.

Abstract. This article examines the process of communication and its role in the language system. Particular attention is given to the use of negative forms in the Japanese language and their linguistic and pragmatic features. The differences between Japanese and other languages are analyzed through examples, and the importance of negative constructions in communication is highlighted.

Keywords: communication, negative forms, Japanese language, linguopragmatics, speech process, communicative factor, verbal and nonverbal communication, double negation, linguistics, intercultural communication.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс коммуникации и его роль в языковой системе. Особое внимание уделяется употреблению отрицательных форм в японском языке, их лингвистическим и прагматическим особенностям. Также на основе примеров анализируются различия между японским и другими языками и раскрывается значение отрицательных конструкций в процессе общения.

Ключевые слова: коммуникация, отрицательные формы, японский язык, лингвопрагматика, речевой процесс, коммуникативный фактор, вербальное и невербальное общение, двойное отрицание, языкознание, межкультурная коммуникация.

Kirish. Muloqot – insonlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ko‘rsatish orqali ehtiyoj yuzasidan vujudga keladigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot jarayonida axborot almashinish ya‘ni kommunikativ omil muxim o‘rin tutadi. Suhbat davomida muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etish muhim sanaladi. Birgalikda faoliyat ko‘rsatayotganda zaruratga ko‘ra boshqa odamlar bilan birlashishi, o‘zaro xamjihatlikga erishishi, kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim. Muloqot jarayonidagi o‘zaro birgalikdagi harakat, yani nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, balki xarakterlar, imi-ishoralar bilan ham bir-birini tushinishdan iborat. Demak, muloqot-shaxslar orasidagi nutqli yoki nutqsiz o‘zaro aloqa jarayonidir.

Adabiyotlar tahlili. Inson muloqot jarayonini ijtimoiy holatda, monologda, suhbatda, fikrlashda va dialogik nutqlar yordamida shakllantiradi. Bundan tashqari ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda, axloqiy-huquqiy munosabatlar va psixo-emotsional holatlarda ham muloqotga kirishadi. T. Shibutani “Ijtimoiy psixologiya” asarida, “Inson oz bo‘lsada ham o‘zini anglay bilsa shundagina, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi”,

deb takidlagan edi. Bu esa inson muloqotga kirishishi uchun avval o'zligini anglash va yetarlicha bilimga ega bo'lishi muhim sanaladi.

Naukaning fikriga ko'ra til aloqasi – nutqiy harakatni amalga oshirishda, xarakatlarni amalga oshirish vaqtida muxim rol o'ynaydi. Insonning bir-birlari bilan muloqotida verbal va noverbal kontekstlar ustida olimlar ancha vaqtlardan buyon izlanishlar olib borishmoqdalar. Tilni aloqa usullari haqida gapirsak – nutq shartligini, bir jamoa vakillari uchun xos bo'lgan shakllar orqali ifodalanishi bilan ajralib turadi.

“Tildan tashqari (iqtisodiy, madaniy va moddiy) hayot tilda o'ziga xos birgina omilni emas balki, bu omillarning to'liq majmuasini va ayrim kichik omillar ta'sirida tadbiiq qilinadi” deb aytgan D. Polivanov. Bu nazariyadan biz bir-biridan uzoq tillarni solishtirganda masalan: yapon tilini hind-yevropa tillari bilan o'rgangan vaqtida kundalik nutq harakatlarimiz ta'sirida yuzaga chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-chog'ishtirma hamda lingvopragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Yapon tilidagi inkor shakllari va ularning muloqot jarayonidagi funksional-pragmatik xususiyatlari ilmiy manbalar, badiiy matnlar hamda kundalik nutq namunalariga tayangan holda tahlil qilindi. Shuningdek, yapon va boshqa tillardagi inkor konstruksiyalari qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning kommunikativ va madaniy xususiyatlari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Polshalik yaponolog Vislav Kotanskiy “Yapon tilida kodlash, ya'ni lingvistik ibora yasash jarayonini tushuntirayotganda yaponlarning xatti-harakatlarni, ularning talaffuziga bo'lgan munosabatini va nutq vaqtidagi mavqeini zaruriy jarayon sifatida qaraydi. Shu sababli ham ularning lisoniy harakatlari yetarli darajada farqlanishi mumkin. Agar siz ularning muloqot jarayonini eng oddiy misollardan o'rganishni boshlasangiz quyidagi misollar orqali talqin qilishingiz mumkin bo'ladi.

Bu sizning sumkangizmi?

Derazani ochsam, qarshimasmisiz?

Ko'rinishdagi savollarga o'zbek yoki rus tillarida quyidagicha javoblarga guvoh bo'lishingiz mumkin.

Yo'q, meniki emas

Men qarshi emasman

ko'rinishida javob beriladi. Bu javoblar kundalik muloqotlardagi oddiy savol-javoblar. Yaponlarning bu savollarga javoblarini ko'rib o'tamiz.

Ha, meniki emas

Ha, qarshi emasman

mazmunidagi javoblarni berishdi. Bu jarayon xususida professor Kotanskiy o'z fikrini quyidagicha bayon qilgan. Agarda yaponlar bir-birlariga “*yemaysizmi?*” degan savol bilan yuzlanishsa ular bu savolga “*yo'q*” deb javob bersa ular bu savolning mazmunini rad etishadi, ya'ni ularning javobi “*albatta yeyman*” degan ma'noni anglatadi. Agarda shu

savolga yoki shunga o'xshash savolga *iie* (yo'q), undan keyin bu savolning mazmuniga umuman bog'liq bo'lmagan javobini va xatti-xarakatlari orqali namoyon qilsa buning ma'no mazmuni *men yemayman* ifodasini beradi. Bundan ko'rib turibmizki "yo'q" so'zining vazifasini tushinish va uning to'g'ri qo'llanilishi, uning turli xil mazmunga ega bo'la olishini ta'minlaydi. Bunday misollarni yaponiya axolisini suxbatlarini tinglaganda yoki ular bilan suxbat chog'ida ko'plab uchratish mumkin.

Har qanday tilni o'rganish jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan va eng oson so'z "ha" yoki "yo'q" ni o'rganishdan boshlanadi. "Ha" deyish oson tushiniladigan jarayon bo'lib yo'qga nisbatdan qiyin va yana izoh talab etadigan ma'noni anglatadi. Biroq yapon tilida juda qiziq vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi va biroz mujmal javob hisoblanadi.

Hech kim menga qo'ng'iroq qilmadimi?

degan savol yapon tilida berilsa unga "albatta deb javob beriladi. Bu savol davom ettirilib *Kim?* deyilsa "Xech kim" degan javob beriladi. O'zbek yoki rus millati vakillariga bu savol berilsa oddiygina *Yo'q* deb javob beriladi. Bundan anglashiladiki ular salbiy javobdan ko'ra ijobiy javob berishga urinishadi. Yapon tilida boshqa tillarga qaraganda mantiqan javob berish kuchliroq. Qisqacha qilib aytganda suxbat vaqtida suxbatdoshni savollariga javob berish xushmuomillikni maksimal darajasiga mos kelishi, e'tiborni kuchaytirish, xurmat ko'rsatish va unga yaxshi kayfiyat baxsh etish kabi majburiyatlarni ham so'zlovchining zimmasiga yuklaydi. Yapon tilini o'rganayotgan chet elliklar uchun ushbu tilda inkor muloqot jarayonida bir qancha qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi. Bu boshqa tillarda uchramaydigan o'ziga xoslik hisoblanadi. Bunga misol keltiradigan bo'lsak suxbat jarayonida bir-biriga murojaat turlarining ham ko'pligidir. Murojat shakllari ham har xil: do'stona-odobli, neytral, norasmiy, rasmiy, hurmatli-rasmiy; salomlashishning ham o'z navbatida 50 ga yaqin turi, xayrlashishning 40 ga yaqin turi, kechirim so'rashning 20 ga yaqin turi, minnatdorchilikning ham o'ndan ortiq tur shu qataorda inkor shaklning ham 20 dan ortiq turi mavjud bo'lib bu til o'rganuvchilar uchun chalkashlikni keltirib chiqaradi.

Mashhur yapon yozuvchilaridan biri Tanizaki Junichiro "...So'zlashuv xalqimizning tabiatiga mos bo'lmagan hodisadir. Yaponlar og'zaki emas balki, og'zaki bo'lmagan muloqotni afzal ko'rishadi" deb takidlagan edi. Shu sababli ham ular ko'p so'zlashdan qochishadi. Ba'zan bu bayonotni tushunish suxbatdosh uchun murakkablikni keltirib chiqaradi. Ritorik savollar berish orqali suxbatdoshning fikrini ijobiy yoki salbiy ekanligini quyidagi shakllar orqali aniqlash mumkin:

- dewanai deshyou – shunday bo'lmasmikin...
- (ja nai) ka to omimasu kedoo – shunday emas deb o'ylayman lekin...
- iwasona kiga shimasuga – aytmaydigandek tuyilyabdiyu... kabi inkorni ifodalab keluvchi kanstruksiyalardan foydalanishadilar. Inkor strukturalarini muloqot jarayonidagi holatini grammatik nuqtai-nazarda tahlil qilib o'rganilgan. Yapon olimlarining ayrimlari

qo'shaloq inkor -nakereba naranai ikkita inkorni o'zida mujassamlashtirgan, -nai demo nai, nai kotomo nai kanstruksiya laridan foydalanadilar. Yaponlar suxbatda suxbatdoshiga oddiygina qilib qo'shilaman, bajaraman deyish sodda ko'ringanligi uchun ketma-ket to'rtta inkorni qo'shib gapirishadi. Masalan 明日は勉強しなければなりません。 Nakerebanaranai men buni albatta bajaraman, bajarish shart degan ma'noni ifodalaydi. Bunday ikki inkorlardan foydalanib yapon shoirlari ham o'z asarlarini bezashni yoqtirishgan. Bunda ko'rinib turibdiki ikki inkor bir-biri bilan qo'shib foydalanilgan vaqtida javob ijobiy, shart va ta'kid ma'nosiga aylanadi.

Birinchi marotaba rad etilgan so'zni ikkinchi marotaba rad etish mantiqan tasdiqlovchi bilan ma'no jihatidan bir xil, ammo tuzilish jihatidan inkor strukturasi bilan ifodalanadi. Bundan ko'rinib turibdiki biz rad etayotgan holatda qo'sh inkorlardan bilib bilmagan holda foydalanishimiz manfiydan musbat ishoraga qarab boradi va so'zni tasdiqlovchiga aylantiradi.

Qo'sh inkorlardan foydalanib inkorni tasdiq shakliga o'tishi shu ifodalayotgan tasdiq shaklini oddiy tasdiq shakli bilan solishtirib ko'rilgan vaqtida bu shartlilikni, fikridan qaytmaslik va bajarmaslikni iloji yo'qlik ma'nosini bildiradi va oddiy tasdiqdan kuchliroq ma'noni ifodalaydi.

きっと時間通りに来なかったに違いない

kitto jikan dorini konakattani chigainai

bu misolda ko'rib turganimizdek vaqtida kelishi haqida ikkilanish ham yo'q (o'z vaqida kelmaganligi aniq) ikki inkordan foydalangan holda yanada aniqlashtirib, xech qanday shubxaga o'rin qoldirmaslikni ifodalaydi.

明日は勉強しなければならない

ashitaha benkyou shina kereba naranai

ertaga dars qilmaslikni iloji yo'q (dar qilish shart)

inkor shakllar bir-biri bilan qo'shib shartlilikni ifodalaydi va o'z inkor ma'nosidan chetlashadi.

Muloqotda suxbatdoshga inkor ma'nosini ifodalash uchun o'zingizni oddiyroq qilib gapirsangiz ular bilan do'stona aloqani uzoq vaqt saqlab qolish mumkin degan nazariya bor bo'lib, bunga ko'ra mening sizga yoqmaydigan ishim – *sessku*, mening baxti qaro uyim – *settaku* va ahmoq singlim *gumai* deb ataluvchi terminlarni ishlatish orqali vaziyatni yumshatishga xarakat qilishadi. Bunday so'zlar bilan boshlangan salbiy ifodalarga to'lib toshgan suxbat ham suxbatdoshni ranjitish ehtimoli past bo'ladi.

Muloqot jarayonida bu kirish so'zlarda foydalanib suxbatdoshni yuz ifodasiga qarab, gaplarga bo'lgan munosabatini kuzatgan holda suxbat ijobiy yoki salbiy ma'nda ekanligini anglash mumkin. Yapon tilida kamdan-kam istisnoli holatlardan tashqari yapon tilida jumla oxirida keluvchi inkor so'zning oxirgi xal qiluvchi qismi ekanligi anglashiladi.

“Biz yapon tilining grammatikasi shunday bo‘lgani uchungina emas, shu grammatikada ajdodlarimiz gapirgani uchun biz bunga o‘zgartirish kiritmaymiz” deya takidlagan edi yapon tilshunosi Xorikava Namoyishi.

XULOSA. Umuman olganda muloqot jarayonida imo-ishoralar o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib ona tilimizdagi kabi ulardan yaponlar uchun foydalanadigan bo‘lsak bu bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Sizga yapon suxbatdoshingiz biror narsa yeyish yo ichishni taklif qildi deylik siz unda juda taqiqlaganingizni bildirish uchun bo‘yin atrofidan foydalanib xarakat qilib qo‘ysangiz bu ularda juda noo‘rin xolatini keltirib chiqarib, ulardan boshini tanasidan judo qilish ma‘nosini ifodalaydi. Agarda barmoqlaringizni aylana shaklda bog‘lasangiz ok ni ifodalab hammasi yaxshi demoqchisiz, ammo buning yaponlar uchun ikkinchi ma‘nosi ham bor bo‘lib, pul olish istagi borligini ham ifodalab keladi. Chunki ularda tangalar borligi uchun ikki xil tushinilishga imkon yaratib beradi. Yana bir qiziq holatni sizga aytadigan bo‘lsak jimjiloq barmog‘ini boshqa narsa kerak emas faqat shu yetadi deb ifodalamoqchi bo‘lib ko‘rsatilsa bu yaponlar uchun juda xaqoratli so‘zga aylanib “ayol” degan ma‘noni bildiradi. Salomlashish vaqtida ham qiyinchilikga duch kelinadi. Ular qo‘l berib ko‘rishishmaydi, yuzlaridan o‘pmaydi va shunga o‘xshash boshqa xarakatlarni amalga oshirishmaydi va ular buni gigeinaga bog‘liq deb aytishadi. Ko‘pgina hollarda yaponiyaliklar ham Yevropa madaniyati bilan tanishib qo‘l siqib ko‘rishishi mumkin, ammo bu kamdan-kam hollarda bo‘lib, ular o‘zlarining kundalik an‘analaridan chetga chiqishmagani sababli ularni odatlariga moslashishini taqazo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G.Boqiyeva, Qurbonova, Yunusova G, Abuzalova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent 2010.B 83-85
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanadarivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, hujjatlar to‘plami, 2017-y., 6-son
3. 陶振孝 (1991) 「日本語の二重否定について」 『日本語学』 vol.10 No. 6明治書院 36p
4. 陶振孝 (1991) 「日本語の二重否定について」 『日本語学』 vol.10 No. 6明治書院 39p
5. Miestamo, Matti. 2005a. Standard negation: The negation of declarative verbal main clauses in a typological perspective (Empirical Approaches to Language Typology 31). Berlin/New York: Mouton de Gruyter.56p
6. Boymurodova Dilafuz Dilshod qizi. (2026). YAPON MULOQOT JARAYONIDA INKOR LEKSEMALARNING LINGVOKULTURALOGIK TAHLILI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.18397948>
7. D.D., B. (2026). YAPON TILIDA INKOR INKOR VOSITALARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Advances in Science and Humanities*, 2(07), 63-65. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i07.016>
8. O.F. Achilova. A contrastive study of english and japanese grammar: structural, morphosyntactic and pragmatic perspectives. *Vol. 13 No. 11 (2025): FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities*. –117-120 p.

9. D.D, B. (2026). INKOR SHAKLLARNING LINGVOSTILISTIK TAHLILI. *Advances in Science and Humanities*, 2(07), 55-58. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i07.014>
10. PECULIAR FEATURES OF NEGATION IN JAPANESE COMMUNICATION PROCESS. (2026). *International Journal of Artificial Intelligence*, 6(03), 523-526. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/11728>

